



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





GAP BO'LAKLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabasi

Abdurahimova Maftunaxon Nuriddin qizi

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy tezisdan o'zbek tili sintaktik qurilishining asosi hisoblangan gap bo'laklari tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda gap bo'laklarining an'anaviy tasnifi bilan bir qatorda, ularning gapdagi o'zaro iyerarxik munosabatlari va semantik funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, gap bo'laklarining morfologik ifodalanishi va ularning fikrni shakllantirishdagi kommunikativ roli zamonaviy tilshunoslik prizmasi orqali ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sintaksis, gap bo'laklari, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol, predikativlik, sintaktik aloqa, semantik qurilish, so'z tartibi, o'zbek tilshunosligi.

ABSTRACT

This scientific thesis analyzes the system of sentence parts, which is the basis of the syntactic structure of the Uzbek language. Along with the traditional classification of sentence parts, the research highlights their mutual hierarchical relationships and semantic functions. Furthermore, the morphological expression of sentence parts and their communicative role in shaping the thought are examined through the prism of modern linguistics.

Key words: syntax, parts of the sentence, principal parts, secondary parts, subject, predicate, attribute, object, adverbial modifier, predicativity, syntactic relationship, semantic structure, word order, Uzbek linguistics.

Gap tarkibidagi o'zaro tobe bog'lanishda bo'lgan so'zlardan bittasi tobe bo'lak, ikkinchisi hokim bo'lak vazifasini bajaradi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka bog'lanib hokim bo'lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi. Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini mustaqil so'zlarga bajaradi.





Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatlarga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi.

Masalan : Dildora kecha uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi gapida quyidagi gap bo'laklari mavjud: Dildora (kim?)- ega , kechagi (qaysi?)- aniqllovchi, uchrashuv haqida (nima haqida?) -to'ldiruvchi, zavqlanib (qay tarzda?)- hol, gapirdi(nima qildi?) -kesim. So'zlar quyidagicha sintaktik aloqaga kirishgan : 1) Dildora gapirdi; 2) zavqlanib gapirdi ; 3) uchrashuv haqida gapirdi; 4) kechagi uchrashuv.

Gap bo'laklari 5 ta: kesim , ega, aniqllovchi, to'ldiruvchi , hol. Demak , gap bo'lagi tobe bog'lanish doirasida , tobe qism vazifasida kelgan bo'lak hisoblanadi. Uning qaysi bo'lak vazifasida kelayotgani hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi .

Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uni kesim ekanini kesimlik shakllari ko'rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi. Boshqa bo'laklar javob bo'lishi zarur bo'lgan so'roqlar kesimga qarab belgilanadi. Masalan: Sen Pushkinning sevgan malagi gapida kim ? so'rog'iga kesim vazifasidagi Pushkinning sevgan malagi bo'lagida bog'lanadi. Kim ? so'rog'iga javob bo'luvchi bo'lak ega vazifasida keladi . Demak, ega ham kesimga nisbatan belgilanadi.

Gapning ega sifatida shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak- kesim . Shuning uchun u gapning eng muhim bo'lagi, bosh bo'lak sanaladi.

Ega kesimga ergashib kesimda ifodalangan belgi, harakat – holatning bajaruvchisini ko'rsatadi va kesimdan keyingi bo'lak sanaladi. To'ldiruvchi va hol bo'laklari kesim bilan tobe munosabatga kirishib ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlashadi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deyiladi.

Aniqllovchi yuqoridagi barcha bo'laklariga bog'lanib ularning ma'nosini izohlab keladi. Gapdagi qaysi bo'lak bilan munosabatda bo'lsa, shu bo'lak bilan birgalikda bitta gap bo'lagi , birikmali gap bo'lagi bo'lib keladi.

Aniqllovchi shu birikmali gap bo'laklarining bo'lagi sifatida ajralib chiqadi.

Shunday qilib , gap bo'laklari bir nechta darajalarga bo'linadi:

1. Bosh bo'laklar:kesim , ega.
2. Ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchi, aniqllovchi , hol.

XULOSA

O'zbek tili sintaktik tizimida gap bo'laklari masalasini atroflicha o'rganish natijasida quyidagi umumiy ilmiy xulosalarga kelindi:





Birinchidan, gap bo'laklari nafaqat gapning qurilish materiali, balki tilning mantiqiy-semantik va kommunikativ butunligini ta'minlovchi asosiy vositadir. An'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklarini faqat ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kabi qat'iy qoliplarga solish tamoyili ustunlik qilgan bo'lsa, zamonaviy o'zbek tilshunosligi ularni gapning **mazmuniy markazi (predikativlik)** va so'zlovchining sub'ektiv munosabati bilan bog'liq holda tahlil qilishni talab etadi.

Ikkinchidan, gapning bosh bo'laklari, xususan, **kesim** gapning "yuragi" bo'lib xizmat qiladi. Kesim orqali gapda zamon, shaxs-son va modallik ma'nolari ifodalanadi. **Ega** esa kesim bilan zich grammatik aloqaga kirishib, fikrning sub'ektini aniqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili kabi turkiy tillarda ega va kesimning moslashuvi gapning grammatik mukammalligini ta'minlovchi asosiy qonuniyatdir.

Uchinchidan, **ikkinchi darajali bo'laklar** gapning axborot sig'imini kengaytirishga xizmat qiladi. Ular shunchaki "qo'shimcha" elementlar emas, balki nutqning aniqligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi, voqelikning turli belgilarini (o'rin, payt, sabab, maqsad va holat) ochib beruvchi muhim bo'laklardir. Ayniqsa, aniqlovchi va to'ldiruvchilarning leksik-semantik xususiyatlari badiiy va ilmiy nutq uslublarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, o'zbek tili sintaksisida **so'z tartibi** gap bo'laklarining funksional yuklamasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'z tartibining o'zgarishi (inversiya) natijasida gap bo'lagining grammatik vazifasi saqlanib qolsa-da, uning uslubiy va mantiqiy vazifasi o'zgaradi. Bu esa o'zbek tili gap qurilishining naqadar moslanuvchan va boy ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. **G'ulomov A., Asqarova M.** Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
2. **Sayfullayeva R., Qurbonova M., Abuzalova M.** Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. **Mahmudov N., Nurmonov A.** O'zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. **Nurmonov A.** O'zbek tilining nazariy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2002.
5. **Hojiyev A.** Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
6. **Abdurahmonov G'.** O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1996.
7. **Yusupov O'.** Chog'ishtirma tilshunoslik muammolari. – Toshkent, 2007.

